

## SINGAPUR TA'LIMI VA UNING O'ZIGA XOS YUKSALISHI

**Muxammadjonova Xadichaxon***Qo`qon DPI magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jahon ta'lim tizimi tajribalari, jumladan Singapur ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. Singapur ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, o'rta maktab, kasbiy ta'lim, oliy ta'limning o'ziga xos jihatlari, rivojlanish mexanizmlari o'rganilgan va O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash uchun ilg'or tajribalar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, ta'lim tizimi, Singapur, mo'jiza, maktabgacha ta'lim, maktab, klaster, maxsus, ekspress, akademik, texnik maktab, oliy ta'lim, natija.*

## ОБРАЗОВАНИЕ В СИНГАПУРЕ И ЕГО ЛИЧНОСТНЫЙ РОСТ

**Мухаммаджонова Хадичахан***магистрант Кокандского ДПИ*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация об опыте мировой системы образования, в том числе системы образования Сингапура. Были изучены и разработаны конкретные аспекты сингапурской системы образования, дошкольного образования, средней школы, профессионального образования, высшего образования, механизмы развития для использования в системе образования Узбекистана и анализируются эксперименты.*

**Ключевые слова:** *образование, система образования, Сингапур, чудо, дошкольное учреждение, школа, кластер, специальное, экспресс, академическое, техническое училище, высшее образование, результат.*

## EDUCATION IN SINGAPORE AND ITS PERSONAL GROWTH

**Mukhammadjonova Khadichakhan***master student of the Kokand DPI*

**Annotation:** *This article provides information about the experience of the world education system, including the Singapore education system. Specific aspects of the Singaporean education system, pre-school education, secondary school, vocational education, higher education, development mechanisms for use in the education system of Uzbekistan have been studied and developed and experiments are being analyzed.*

**Key words:** *education, education system, Singapore, miracle, preschool, school, cluster, special, express, academic, technical school, higher education, result.*

**Kirish.** “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”, deydi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi etakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan.

“Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa horij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir”<sup>21</sup>, dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev.

Qiyosiy pedagogikani o‘rganish jarayonida ayrim nazariy asoslari va amaliy vazifalari o‘z mamlakatdagi ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun foydali tajribani olish maqsadida turli ta’lim sistemalarining ijobiy tomonlarini qayd etish vazifalari belgilanadi.

**Metodlar.** Ayrim olimlar maorif ishining rivojlanishi bilan tanishish uchun boshqa mamlakatlarga bordilar. Bu sayohatlarning natijalarini nashr etib, muallimlar o‘z milliy maktabini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatdilar. Sarbonnadagi falsafa professori Viktor Kuzen nemis pedagoglari D.A.Kruze, Fridrix Tiriniig, Amerika pedagoglari G.Mann, G.Bernard, K.Stou, Turber, A.Fleksnerning, ingliz pedagogi M-Sedler va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlar Rociyada xam ancha rivojlandi. Ayniqsa ulug‘ rus pedagoglari K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoyning ishlari katta e’tiborga loyiq. Mamlakatimizda N. Usmonov, N. Salimova, P. Jo‘raev, Yu. Erxanova kabilar horijiy mamlakatlar ta’lim tizimi masalalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

**Natijalar.** Ta’limda keng ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda bo‘lg‘usi talaba va yoshlarga, xalq ta’limi xodimlariga, chet el o‘qituvchilari, horij ta’limi haqida kengroq ma’lumotlar berish, ular tajribalarini joriy etish bo‘yicha ma’lumot taqdim etish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Bugun ta’lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotganligidan ham anglash mumkin.

Masalan, maorifga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизimini ривожланттириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нуткидан.

davlatlardan biri – Singapurdir. Singapur Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan davrda uning sanoati asosan mineral yoqilg‘i va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan edi. SHunga qaramay, o‘sha davrdayoq ta‘lim tizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratildi. So‘nggi yillarda mamlakat va xorij oliy o‘quv yurtlarida ilm-fanning eng zamonaviy yo‘nalishlari va ilg‘or texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Singapur ilmiy-texnik rivojlanish sohasida jahonda etakchi mamlakatlardan biriga aylandi. Ayni paytda bu mamlakat yer sharida 10 ming kishi hisobiga olimlar ko‘pchilikni tashkil etadigan (47) besh mamlakat qatoridan joy olgan. Singapur yalpi ichki mahsulotga nisbatan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga mablag‘ sarflash darajasi bo‘yicha o‘zining sobiq mustamlakachisi Buyuk Britaniyadan ham oldinda turadi<sup>22</sup>.

**Munozara.** Singapurda umumiy ta‘lim tizimi haqida to‘xtalganda qo‘yidagilarga e‘tibor qaratish lozim. Ta‘lim olish Singapurda - jamiyat siyosatida etakchi o‘rinlarda turadi. Singapur Ta‘lim Vazirligining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning iqtidorini aniqlashga, ular potentsiallarini amalga oshirishga, butun hayoti davomida bilimlarni olishga intilish va qiziqishni rivojlantirishga ko‘mak berishdan iborat. Singapur ta‘lim tizimi – *Ta‘lim bu-hayotga tayyorlash emas, balki hayotning o‘zi* tamoyili asosida qurilgan.

Singapur umumiy ta‘lim tizimi uch bosqichdan iborat. Mamlakat ma‘muriy jihatdan 4 ta ta‘lim hududiga bo‘lingan bo‘lib, har bir hudud 7 ta maktab klasteridan iborat.

Har bir klaster o‘rtacha 12-14 boshlang‘ich va o‘rta maktabni o‘z ichiga oladi. PIRLS tadqiqotida (Ifodali o‘qish yutuqlarini o‘rganuvchi xalqaro tadqiqot tashkiloti) Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Singapur maktablarining o‘quvchilari 1995 yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS (matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tendensiyalar) bo‘yicha xalqaro bilimlar imtihonlarida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda.

AQSH va Angliya mamlakatlari ta‘lim tizimidan eng yaxshi jihatlarini olgan Singapur ta‘lim tizimi va ta‘lim muassasalari horijiy abituriyentlarni o‘ziga juda ham jalb etib turadi. Bu erda butun jahon talabalari ta‘lim olganliklari sababli, ta‘lim ingliz tilida beriladi. Singapur ta‘lim tizimi - maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich maktab, o‘rta maktab va oliy ta‘limdan iborat.

Singapurdagi bolalar bog‘chalari xususiy bo‘lib, ulardan ayrimlari diniy tashkilotlari yoki biznes-fondlar tomonidan boshqariladi. Singapurda maktabgacha ta‘lim 3 yoshdan boshlanib, 6 yoshgacha davom etadi. Bolalar bog‘chalarida bolalarni

<sup>22</sup> Анвар Хўжаев, Сингапур таълим тизими: жаҳон маорифида етакчи брендга айланган, Маърифат газетаси, 11.01.2019

muloqotga, hisob-kitobga, o'qish asoslariga o'rgatiladi. Bu erda ona tili bo'lgan - xitoy va malay tilidan tashqari barcha bolalar ingliz tilini ham o'rganadilar.

Boshlang'ich maktabda bolalar 6 yoshdan boshlab o'qiydilar. Ta'lim olish hamma uchun majburiy va 2 bosqichga bo'lingan: asosiy va yo'naltirilgan. Asosiy bosqich 1-4 sinflardan iborat bo'lib, bunda tillar, matematika, fuqarolik huquqi asoslari, rasm, musiqa va jismoniy madaniyat o'rganiladi.

5-6-sinflarda o'quvchilar o'zlari ta'lim olmoqchi bo'lgan yo'nalishlarning etakchi sohalarini tanlash huquqiga ega bo'ladilar. Boshlang'ich maktabni tamomlagach, o'quvchilar imtihon topshiradilar va uning natijasiga ko'ra ta'limning keyingi bosqichiga o'tadilar. Singapurda o'rta maktab quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi: maxsus, texnik, ekspress-yo'nalish, akademik, integrallashgan.

O'quvchilar imtihon natijalari asosida o'rta maktabning maxsus (4 yil), texnik (4 yil), ekspress (4 yil), akademik (5 yil) yoki integrallashgan (5-6 yil) kurslaridan biriga qabul qilinadi. Tabiiyki, har bir yo'nalish o'zaro farq qiladi. Maxsus va ekspress yo'nalishlar 4 yillik ta'lim kurslarini o'z ichiga olib, ularda asosan ona tili fani chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. O'quvchi unga qo'shimcha tarzda biror chet (fransuz, nemis yoki yapon) tilini o'rganishi mumkin. Maxsus va ekspress kurslarni tamomlagan o'quvchilar 2 yillik kollejlarga o'qishga kirishi mumkin.

4 yillik standart kursini tamomlaganlar bitiruv imtihonidan o'tgach, N-daraja(Normal level)ni oladi. So'ng ixtiyoriy tarzda yana bir yil o'qib, keyingi — O-darajani olish uchun imtihon topshirishi mumkin. Singapur xalq ta'limi vazirligining 2004-yildagi buyrug'iga ko'ra, standart yo'nalish bo'yicha tahsil oladigan o'quvchilar orasidan tanlangan iqtidorli o'g'il-qizlar dastlabki N-darajani olmay turib ham O-daraja uchun imtihon topshirishi mumkin.

Singapur ta'limining yana bir o'ziga xosligi noodatiy baholash tizimidir. Aksariyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi to'qqiz ballik — A1 — (eng yuqori), F9 — (eng past) baholash mezonlari asosida o'lchanadi. Bunda A1/A2 (a'lo), B3/B4 (yaxshi), C5/C6 (qoniqarli), D7 (fanni o'zlashtirganlik uchun eng kam ball) hamda E8/F9 (qoniqarsiz) hisoblanadi. Maktablarda yakuniy reyting natijalari to'plangan ballar asosida belgilanadi.

Singapurda eng iqtidorli o'quvchilar integrallashgan ta'lim dasturi(Integrated Programme, IP)ni egallashi mumkin. Bunda mamlakatdagi sara maktablar o'quvchilariga O-daraja sinovlaridan o'tmay turib, 6 yillik o'rta ta'limni tamomlagani zahoti A-darajani olish uchun imtihon topshirish imkoniyati beriladi. Bu o'quvchilarning bo'sh vaqti ko'proq qolishi hamda bu paytda o'zi tanlagan fanlarni chuqurroq o'rganishiga yo'l ochadi.

Maktabni tamomlagach, o'quvchilar kollejga kirishi mumkin. Kollej bitiruvchilari A-daraja sertifikatini olish uchun imtihon topshiradi. Texnik ta'lim olish istagidagilar esa o'qishni 3 yillik politexnikum yoki 1-2 yillik texnik ta'lim institutlarida davom

ettiradi. Universitetoldi ta'limi esa o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorlaydi.

Singapur oliy ta'limi dunyoda yetakchilardan sanaladi. Mamlakatda 5 institut, 4 universitet bo'lib, ularning har birida oliy darajada ta'lim olish kafolatlangan. Shuningdek, mamlakatda 2 ta xususiy universitet hamda bir qancha jahonga mashhur oliy o'quv yurtlarining filiallari mavjud. Davlat OTMLari va xususiy universitetlarda o'qitish jarayoni ham Xalq ta'limi vazirligi nazoratida. Mamlakatdagi eng mashhur oliy o'quv yurtlari Singapur milliy universiteti hamda Nanyan texnologiyalar universiteti bo'lib, ularning har biri yiliga 20 mingdan ortiq talabani qabul qilish imkoniyatiga ega.

Mamlakatda oliy ta'lim tizimi bakalavriyat (3–4 yil), magistratura (1–3 yil) va doktorantura (2–5 yil) bosqichidan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qish ingliz va xitoy tillarida olib boriladi. Universitetlarga abituriyentlar imtihon asosida qabul qilinadi, so'ng ularga xalqaro standartlar asosida ta'lim beriladi. Talaba universitetda o'qish bilan birga, ta'lim muassasasi qoshida tashkil etilgan tadqiqot markazlarida ilmiy izlanish olib borishi va qator fanlar bo'yicha ilmiy daraja olishi mumkin. Singapur universitetlari tomonidan berilgan diplom butun dunyoda amal qiladi.

Oliy ta'lim uchun to'lanadigan shartnoma puli Buyuk Britaniya, AQSh yoki Avstraliya bilan solishtirganda, Singapurda bir necha barobar arzon. Ammo bu yerda beriladigan ta'lim sifati hech bir Yevropa mamlakatidan qolishmaydi. Shuning uchun ham Singapurdagi ta'lim muassasalarida ko'plab xorijlik yoshlar tahsil oladilar.

Oliy ta'limni Singapurda davom ettirish ko'pchilik o'ylaganidek murakkab emas. Buning uchun ingliz tilini chuqur bilish lozim. Shuningdek, Singapur universitetlaridan birida o'qish istagidagi xorijlik abituriyentlardan boshlang'ich va o'rta ta'lim olganligi to'g'risida shahodatnoma yoki diplom, ingliz tili bo'yicha bilimni tasdiqlovchi IELTS yoki TOEFL sertifikat talab etiladi. Sertifikat bo'lmasa, uni olish uchun abituriyent Singapurdagi til o'rgatuvchi maktablardan birida o'qishi mumkin.

Singapur talabalarga ta'lim grantlarini berishda ham keng imkoniyatarga ega. Bu yerda istalgan iqtidorli talaba ta'lim stipendiyasi yoki grantini olishga da'vogarlik qilishi mumkin. Grantlar davlat, o'quv muassasalari yoki ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladi. Ularni qo'lga kiritgan talabalarga ajratiladigan to'lov summasi o'qish xarajatlarini to'liq qoplaydi.

Shu sababi ham Singapur OTMLari jahon reytinglarida yuqori o'rinlarni egallab turadi.

Singapur ta'lim tizimini rivojlanish dinamikasini o'rgangan olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik: O'zbekiston ta'limining ijtimoiy muammolari, ta'lim-tarbiyada umumbashariy, milliy va individual omillarni, rivojlangan mamlakatlar ta'lim yutuqlaridan foydalangan holda tabaqalashtirish, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining umumjahon ilg'or tajribasini, zamonaviy pedagogik g'oyalarini tanlash va ishlab chiqish texnologiyasi, o'quv-tarbiya jarayonida ilg'or tajriba va o'qitish

texnologiyalarni qo'llay olish, umuminsoniy qadriyatlar asosida jahon va respublikamiz ta'limi rivojini tashxis eta olish; jahon va respublikamizda ta'lim taraqqiyotini qiyosiy tahlil etish; respublikamiz ta'limi taraqqiyotidagi afzalliklarni ko'ra olish va uning keyingi rivojini bashorat qila olishga doir ko'nikmalarni egallash, pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, qiyosiy tahlil metodidan foydalana olish, qiyosiy tahlil jarayonida jahon mamlakatlarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni hisobga olish malakalarini egallagan bo'lishimiz darkor.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқидан.
2. Анвар Хўжаев, Сингапур таълим тизими: жаҳон маорифида етакчи брендга айланган, Маърифат газетаси, 11.01.2019
3. PISA. <http://www.education-medelle.com> (Халқаро мониторинг тизимининг PISA дастури). Retrieved 18.09.2016.
4. Муталипова М.Ж. Қиёсий педагогика – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2016 й.
5. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика М.: «Просвещение», 2003 г.
6. Friedrich Scheuermann and Francesc Pedty «Assessing the effects of ICT in education « Indicators, criteria and benchmarks for international comparisons». Retrieved 20.01.2016 from <http://www.csu.edu.au>
7. Pedagogika / Darslik / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
8. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation\\_for\\_view=BrEyDH4AAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation_for_view=BrEyDH4AAAAJ:9yKSN-GCB0IC)
9. SN Anvaronva Developing the Intellectual Power of Preschool Children Through Developing Technologies, Eurasian Research Bulletin (ERB) 7 (1), 30-33 [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation\\_for\\_view=BrEyDH4AAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation_for_view=BrEyDH4AAAAJ:UeHWp8X0CEIC)
10. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation\\_for\\_view=BrEyDH4AAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BrEyDH4AAAAJ&citation_for_view=BrEyDH4AAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)